MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Kurganov Xakimjon Rustamovich Namangan davlat texnika universiteti, "Turizm iqtisodiyoti" kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Globallashuv sharoitida raqobat keskinlashadi. Bunday sharoitda aynan kichik biznes va tadbirkorlik o‘zining harakatchanligi, kam kapital mablag‘larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizasiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatbardosh mahsulotlarni iste’molchilarga taqdim etadi. Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mamlakatimidagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltirilyapti. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo‘lib, minglab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to‘liq shakllanib ulgurmadi. Sohani rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash boasida Prezidentimiz ko‘plab ma’ruzalarida ta’kidlab kelmoqdalar.

Kalit so’zlar: *Yirik biznes, kichik biznes, iqtisodiy o‘sish, integratsiya, “win-win”, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, biznesni “soya”dan chiqarish, “Mittelstand” modeli, “triple helix” modeli, muvozanatli o’sish.*

Abstract. *In the context of globalization, competition is intensifying. In such conditions, it is small business and entrepreneurship that, thanks to their mobility, attract less capital, and quickly modernize production, renew the types of products produced in a short period of time and provide consumers with competitive products. Supporting small businesses is one of the priority areas of economic reforms in our country.*

In recent years, our country has done a lot of practical work on the development of micro-business and family entrepreneurship. More than $ 1 billion is allocated annually to financial support for micro-business through programs. As a result, today at least 40-50 new entrepreneurs appear in each neighborhood, creating thousands of permanent jobs. However, such an environment for targeted support for small businesses and creating the necessary conditions for them has not yet been fully formed. The President has repeatedly emphasized in his speeches the need to develop and support the industry.

Keywords: *Big business, small business, economic growth, integration, "win-win", digital economy, innovation, bringing business out of the "shadow", "Mittelstand" model, "triple helix" model, balanced growth.*

Kirish

Kichik biznesni jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati tobora oshib bormoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida biznesning ustuvorliklari tan olingan. Shu bois ularni rivojlantirish uchun chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish ancha ilgari boshlangan. Ya'ni, kichik biznes jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida nihoyatda muhim o'rin tutadi.

Globallashuv sharoitida raqobat keskinlashadi. Bunday sharoitda aynan kichik biznes va tadbirkorlik o'zining harakatchanligi, kam kapital mablag'larini jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizasiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga taqdim etadi[2]. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mamlakatimidagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Nazariy asoslar. So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltirilyapti. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar

yangi tadbirkor paydo bo‘lib, minglab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to‘liq shakllanib ulgurmadi. Sohani rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash boasida Prezidentimiz ko‘plab ma’ruzalarida ta’kidlab kelmoqdalar.

O‘zbekistonda qo‘llab kelinayotgan amaliyotlar. Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisi yig‘ilishidagi nutqlarida: «Bizning yana bir muhim vazifamiz – kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo‘lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya’ni «Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi»,- deb ta’kidlab o‘tdilar.[1]

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlari barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash orqali aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. Aholining ish bilan bandligini va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekan, biz uni quyidagi masalalarni ijobiy yechim topishida ko‘rishimiz mumkin[3]:

- ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o‘zgartirishning, yangi ish o‘rinlarini yaratishning, aholining bandligini va daromadlarini oshirishning muhim omili va manbai bo‘lib xizmat qilish;

- o‘zining harakatchanligi, bozor konyunkturasi o‘zgarishlariga moslashuvchanligi va kam sarmoya talab qilish hisobiga ishlab chiqarishni tez modernizasiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini yangilash;

- mulkdorlar o‘rta sinfini shakllantirish asosida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashga erishish va boshqa shu kabilar.

Jahon tajribasi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va yirik korporatsiyalar o‘rtasidagi hamkorlik turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Masalan, I.V.Ignatova o‘zining “Tadbirkorlik va biznes: terminologik farqlash” ilmiy asarida “Biznes - bu foyda olishga qaratilgan, tavakkalchilik, o‘z biznesini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat, foyda olishning aniq tizimi kabi sifat xususiyatlarga ega faoliyatdir”, - deb ta'kidlangan[4]. A.B.Borisov esa “Biznes - (ingliz. business - biznes, tadbirkorlik) - daromad olish va o‘z biznesini rivojlantirishdan asosiy maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘z yoki qarz mablag‘lari hisobidan o‘z tavakkalchiligi va o‘z mas'uliyati ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor iqtisodiy faoliyat. Kichik firmalarda kichik miqyosdagi biznes - kichik biznes deyiladi” –deb yondashadi[4]. Biznes – bu tadbirkorlar va yuridik shaxs subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Bunday faoliyatning bir qismi sifatida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va (yoki) sotish amalga oshiriladi. Biznes mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi, deydi Olga Vernigora “Biznes nima?” nomli ilmiy asarida. T.Yu.Gorkova esa o‘zining ilmiy yondashuvlarida, tadbirkor - biznesda markazdagi shaxs bo‘lib, xo‘jalik jarayoni birligida ishlab chiqarishning barcha omillarini birlashtirish vazifasini qo‘yadi kabi ta’rifini beradi[4]. A.N.Asaul “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish” darsligida “Tadbirkorlik - bu xo‘jalik faoliyatining maxsus ko‘rinishi bo‘lib, uning mohiyati jamiyat a’zolarini aniq ehtiyojlarini qondirish va motivlashtirish, bozor vositasi yordamida bozor muvozanatini buzgan xolda raqobatda ustunlikka yo‘naltirilgan faoliyatdir” izohini beradi. M.P.Voynarenko “Tadbirkor - novator, g‘oyani iqtisodiy asoslangan holda o‘zgartira oladigan, o‘ziga va jamiyatga kerakli voqelik” ta’rifini beradi o‘zining “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish” darsligida[5].

Uslubiy yondashuvlar. Agar har ming kishiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha mulohaza yuritadigan bo‘lsak,

u holda bu ko‘rsatkich bo‘yicha AQShning (74 korxona) yetakchi o‘rinda ekanligining guvohi bo‘lamiz. AQShda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari jami korxonalarning 99 foizini tashkil etadi. Bu korxonalarning asosiy qismi juda kichik, kichik korxonalar bo‘lib, oila mehnatiga asoslanadi. Jami kichik korxonalarning 80 foizida ish bilan band bo‘lganlarning soni 10 kishidan oshmaydi.

Mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha keyingi o‘rinlarni Italiya (68 korxona) va Yaponiya (49,6 korxona) egallaydi. Germaniyada har ming kishi hisobiga to‘g‘ri keladigan kichik va o‘rta korxonalar sonining kamligi (37 korxona) sharqiy va G‘arbiy Germaniyaning birlashishi bilan bog‘liq. Ma’lumki, sharqiy Germaniyada ikkinchi jahon urushidan so‘ng kichik biznes deyarli rivojlanmadi. Hozirgi kunda Germaniya yerlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantarish bo‘yicha hukumat tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

Dunyoning ba’zi mamlakatlari iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni

Kichik biznes subyektlari soni (ming)	1000 kishiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes soni	Kichik biznesda bandlarning umumiy bandlikdagi ulushi (%)	Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%)	Mamlakatlar
Buyuk Britaniya	2930	46	56	50–53
Germaniya	2290	37	69,5	50–54
Italiya	3920	68	71	57–60
Fransiya	1980	35	54	55–62
AQSh	19300	74	54	50–52
Yaponiya	6450	50	78	52–55

Manba: B.Yu. Xodiyev, M.S. Qosimova, A.N. Samadov. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2011.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning eng

asosiylaridan biri shundan iboratki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi o‘rta sinfning shakllanishiga olib keladi. Har qanday jamiyatda o‘rta mulkdorlar sinfi iqtisodiyot rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yana bir muhim vazifasi iste’mol talabining tabaqalanishi va individuallashuvi sharoitida keng turdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishini amalga oshirishidir. Bugungi kunda kichik biznes keng rivojlanmagan zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. U, bir tomondan, qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo‘ladi. Va shu nuqtai nazardan iqtisodiyotning bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga, moda va iste’molchilar didining tez-tez almashib turishiga, iqtisodiyotni tarkibiy jihatidan qayta qurishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, kichik va o‘rta korxonalarning katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularni to‘ldiradi va mustahkamlaydi, ularga xos bo‘lgan texnik konservatizimni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Kichik biznesning rivojlanishi bozorni iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan to‘ldirishga, tarmoq va hududiy monopolizmga barham berishga raqobat muhitining vujudga kelishi va kengayishiga, ilmiy-texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga, eksport salohiyatining yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznesning yana bir muhim xususiyati nisbatan kam sarfxarajatlar evaziga yangi ish o‘rinlarini yaratishi va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo‘shishi hisoblanadi.

Muammolar va tavsiyalar. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kichik biznesning moliyaviy resurslari yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi va texnologik yangiliklardan ortda qolishi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat qo‘llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirishi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirishi va kichik biznes subyektlariga innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkonini yaratishi lozim.

Xulosa

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va yirik biznesning integratsiyasi murakkab, ammo nihoyatda zarur jarayondir. Tadbirkorlik va biznes tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin. U ishbilarmonlikdan kelib chiqqan munosabat bo‘lib, biror bir unumli ish, faoliyat bilan bog‘liqlikni anglatadi. Biznes bilan bog‘liq shaxs biznesmen deyiladi. Biznes-bu so‘z ingilizchadan olingan bo‘lib, «biznes» - ish, «men» - odam degan ma’noni anglatadi. Biznes-tadbirkorlik, iqtisodiy kategoriya bo‘lib, xo‘jalik yuritish usuli, iqtisodiy fikrlash turidir. Mustaqillik yillarida respublikamizda kichik biznes sezilarli rivojlandi. Ammo kichik korxonalarni tashkil qilish sur’ati, ularning barqaror rivojlanishi va umumiy iqtisodiy tizimdagi o‘rni hali bozor iqtisodiyoti talablariga to‘la javob bermaydi. Kichik biznesni rivojlantirish yo‘lida ko‘plab qiyinchiliklar paydo bo‘ldi, ularni faqat davlat tomonidan ko‘rilgan tashkiliy va iqtisodiy-ijtimoiy chora tadbirlar asosidagina bartaraf qilish mumkin. Bozor iqtisodiyotining muhim sohasi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qilish va uni rivojlantirish biz uchun yangi va murakkab jarayon bo‘lib, doimiy e’tibor qaratishni, yordam va qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Bunday qo‘llab-quvvatlash so‘nggi yillarda tobora kengayib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga, rag‘batlantirishga qaratilgan yangi qonun va farmonlar nashr qilinmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan yordamdan tashqari, O‘zbekistonda tadbirkorlikning barpo etilishi va rivojlanishi mobaynida tadbirkorlarning nohukumat va notijorat tashkilotlariga birlashish yo‘li bilan o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlash shakllari tobora keng tarqalmoqda. Ushbu tashkilotlar tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, o‘z a’zolarini turli shakllarda qo‘llab-quvvatlaydi va ularga xizmatlar ko‘rsatadi. Bular qatoriga tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, shaxsiy va dehqon xo‘jaliklari uyushmasi, ishbilarmon ayollar uyushmasi, an’anaviy badiiy hunarmandchilik va ustalar uyushmalari, turistik tashkilotlar uyushmasini kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2017–2024 yillar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari. – Toshkent, 2022–2024 yillar.
3. Abduqodirov A.A., Xodjayev B.H. Biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2021.
4. Qodirov B.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Rustamov D., Shodmonov Sh. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2019.
6. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki materiallari. – Vashington, 2018–2024 yillar.